

UDK: 2788

TIBBIYOT VA FARMATSEVTIKADA FOYDALANILADIGAN O'SIMLIKLER

*Omonova Farangiz Omon qizi
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot va farmasevtika sohasida dorivor o'simliklarning tutgan o'rni, ularning biologic va farmakologik xususiyatlari eng ko'p qo'llaniladigan turlari, ulardan dori vositalarini tayyorlash texnologiyasi va ekologik muammolari yoritilgan. Shuningdek, dorivor o'simliklarning sanoatdagi ahamiyati, O'zbekistonda ularni yetishtirish imkoniyatlari va ehtiyyot choralari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Dorivor o'simliklar, tibbiyot, farmatsevtika, fitoterapiya, alkaloid, efir moyi, ekstrakt, ekologik muhofaza.

Аннотация: В статье рассматривается значение лекарственных растений в медицине и фармацевтике, их биологические и фармакологические свойства технологии получения лекарственных форм, а также эколого – экономические аспекты их использования. Особое внимание уделяется наиболее используемым видам растений и их роли в фармацевтической промышленности Узбекистана.

Ключевые слова: Лекарственные растения, медицина, фармацевтика, фитотерапия, алкалоиды, эфирные масла, экстракты, экологическая защита.

Abstract: This article discusses the importance of medicinal plants in the fields of medicine and pharmacy focusing on their biological and pharmacological properties, methods of pharmaceutical extraction, and their role in industrial production. It also addresses the ecological and economic aspects of their usage, highlighting the most commonly used species and their significance in Uzbekistan's pharmaceutical sector.

Keywords: medicinal plants, medicina, pharmac, phytotherapy, alkaloids, essential oils, extracts, ecological protection.

Kirish. Tabiat inson salomatligi uchun eng boy manbalardan biridir. Ayniqsa, dorivor o'simliklar qadim zamonlardan beri xalq tabobatida, hozir esa zamonaviy farmatsevtikada keng qo'llanib kelinmoqda. Tibbiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda, dorivor o'simliklarga bo'lgan ehtiyoj ham oshib bormoqda. Bu o'simliklar nafaqat dori vositalarining xomashyosi, balki ularning faol moddalari ham ko'plab kasalliklarning oldini olish va davolashda muhim ahamiyatga ega. Insoniyat qadimdan o'simliklar orqali davolanish usullarini qo'llab kelgan. Hatto zamonaviy dori vositalarining asosiy qismini ham o'simliklar tashkil etadi. Tibbiyot va farmasevtika sohalarida ishlatiladigan o'simliklar tabiiy, xavfsiz va ko'p hollarda arzon davollash

manbai hisoblanadi. Bugungi kunda dorivor o'simliklar nafaqat xalq tabobatida, balki farmasevtik sanoatning muhim xomashyosi sifatida ham katta o'rinn tutmoqda.

Dorivor o'simliklarning biologik va farmakologik xususiyatlari:

Dorivor o'simliklar o'z tarkibida alkaloidlar, flavonidlar, glikozidlar, efir moylari, taninlar, saponinlar kabi faol biologik moddalarni saqlaydi. Ular organizimda antibakterial, yallig'lanishga qarshi, og'riqni kamaytiruvchi, tinchlantiruvchi yoki immunitetni kuchaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Masalan: **Alkaloidlar** - analgetik va spazmolitik ta'sir (masalan, mak va belladonna) **Flavonoidlar** - antioksidant xususiyat (masalan, uzum, limon) **Flavonoidlar** - antioksidant xususiyat (masalan, uzum, limon)

Eng ko'p qo'llaniladigan dorivor o'simliklar :

1. Aloe vera

•**Foydasi:** Yallig'lanishga qarshi, yarani bitkazuvchi, teri muammolarida keng ishlatiladi.

•**Farmasevtik shakllar :** Gellar , kremlar , shampunlar , ichimliklar .

2.Romashka (matricaria chamomilla)

•**Ta'siri:** Tinchlantiruvchi , spazmolotik , antiseptik .

•**Ishlatilishi:** Choylar , damlamalar , ko'z yuvish eritmalar .

3. Zanjabil (ginger)

•**Ta'siri :** Antibakterial, antioksidant, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi.

•**Qo'llanilishi:** Kapsulalar, damlamalar, choylar.

4. Gulkaram (Echinacea)

•**Foydasi:** Immunitetni oshiradi, shamollahsga qarshi vosita.

•**Qo'llanilishi :** Immunostimulyator tabletkalar .

5. Shuvoq (artemisia annua)

•**Farmasevtik qo'llanilishi:** Malaria yaga qarshi artmisinin moddasini o'z ichiga oladi.

•**Bugungi ahamiyati :** COVID - 19 davrida ham taqqid qilingan .

6. Yalpiz (mentha)

•**Ta'siri :** Og'riqni kamaytiruvchi, tinchlantiruvchi, yo'talga qarshi.

•**Ishlatilishi:** Pastilkalar, spreylar, damlamalar.

Dorivor o'simliklardan dori tayyorlash texnologiyasi :

Farmasevtikada dorivor o'simliklardan quyidagi shakllarda dori vositalari tayyorlandi :

•**Infuzlar** - suvli damlamalar.

•**Ekstraktlar** - kontsentratsiyalangan faol modda.

•**Tabletka va kapsulalar** - quruq o'simlik kukuni asosida .

•**Yog'lar va efirlar** - massaj , inhalatsiya va kosmetikada ishlatiladi.

- **Tashqi qo'llaniladigan krem , maz , gel - teri kasalliklarida.**

Dorivor xomashyoni quritish, maydalash , ekstraktsiya qilish , standartlash kabi jarayonlar asosida sanoatga tayyor mahsulot kiritiladi.

Dorivor o'simliklarning farmasevtik sanoatdagি o'rni :

Bugungi kunda dunyo farmatsevtikasining **35-40 %** faol moddalari o'simliklardan olinadi. O'zbekiston ham dorivor o'simliklardan olinadi . O'zbekiston ham dorivor o'simliklarni yetishtirish va eksport qilish bo'yicha katta salohiyatiga ega. Xususan, **Surxondaryo, Jizzax, Qashqadaryo va Farg'on'a viloyatlari** dorivor ekinlar yetishtirishga mos hududlardir .

Farmatsevtik kompaniyalar tomonidan quyidagi mahsulotlar keng ishlab chiqariladi:

- Fitonazal, Fitobar, Immunal , Valerian damlamasi, Evkalipt yog‘ va h.k.

Dorivor o'simliklarni ehtiyyot qilish va ekologik muammolar :

Dorivor o'simliklarning ko'pchiligi yovvoyi holda o'sadi. Ularning haddan tashqari ko'p terilishi **ekologik muammolarga** olib kelmoqda . Shu sababli :

- Ekologik nazorat o'rnatish ,
- Plantatsiyalarda sun'iy yetishtirishni rivojlantirish,
- Endemik o'simliklarni muhofaza qilish muhimdir.

Xulosa Tibbiyot va farmasevtika sohasida dorivor o'simliklarning ahamiyati beqiyosdir. Ular nafaqat davolash uchun, balki kasalliklarning oldini olishda ham muhim vosita hisoblanad. Dorivor o'simliklarni ilmiy asosda o'rganish , ularni sanoat darajasida qayta ishslash , ekologik muhofaza qilish - zamonaviy sog'liqi saqlashning ajralmas bo'lagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov Sh va boshqalar. Farmakognoziya asoslari - Toshkent Istiqlol, 2021
2. Turakulov B.A . Dorivor o'simliklar va xalq tabobati . - Samarqand, 2020.
3. WHO Monographs on Selected Medicinal Plants .- World Health Organization , 2019
4. Qodirov M.A. Botanika: dorivor o'simliklar . - Toshkent , 2022
- 5.Ibragimov F.Fitoterapiya asoslari - Toshkent, 2021.